

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.Mirzaaxmedova, B.Sh.Shermuhammadov

Xorij tadqiqotlarida bo'lajak o'qituvchilarda analistik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasining yoritilishi 9

A.A.Tolametov

Umumiy o'rta ta'limga muktablari o'quvchilarini jismoniy tarbiya darslarida tadqiqot 15

I.R.Jumaniyazov

Talabada musiqa ta'limi jarayonida kreativ qobiliyatni aniqlash va rivojlantirish 20

Sh.I.Allamuratov

Kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishini pedagogik tahlil qilish 24

N.M.O'rinova, M.I.Muxammadjonova

Xorijiy ta'limga tyutorlik dasturlarining mohiyati va ulardan foydalanish imkoniyatlari 30

N.M.Merganova

Chet tili darslarida dialogik nutq turi va polilogdan foydalanish 36

A.A.Tolametov, M.M.Baxromov

Kompyuterning inson hayoti va salomatligi uchun ta'siri 40

Y.U.Egamberdiyeva

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi va o'quvchisining ochiq qo'shma faoliyatini metodik rivojlantirish texnologiyalari 44

A.Abdulayev, J.Abdullahayev

Jismoniy tarbiyadan sinfdan tashqari mashg'ulotlarni bolalar va o'smirlar organizmning funksiyasiga ta'siri 52

Q.Y.Nazirov

Yosh kurashchilarni dastlabki texnik va taktik tayyorlashning uslubiy asoslari 57

T.T.Yusupov

Kurashchhlarning texnik mahoratini oshirish yo'llarini o'rgatish mexanizmlari 61

Б.Б.Хайтбаева, Ф.А.Алижонова

Роль ритмической гимнастики в развитии координации движений у детей с нарушениями развития 64

O.N.Madaminov

Jismoniy tarbiyani boshqa fanlar bilan bog'liqligi 71

S.Muzafarova

Yangi O'zbekiston yoshlari tafakkurini rivojlanishda sharq mutafakkirlari va jadid ma'rifatparvarlarining san'at va madaniyat sohasiga doir qarashlarining estetik xususiyatlari 74

N.Sh.Urinova

Boshlang'ich ta'limga ingliz tili fanini o'qitish jarayonida steam texnologiyasidan foydalanishning roli 78

D.D.Boymirzayeva

Bo'lajak ta'limga menejerlarida ijtimoiy ijodkorlikni shakllantirishning nazariy jihatlari 83

I.Ikromov

Gimnastika mashqlari komplekslarini tuzish va o'tkazishga qo'yiladigan talablar va ularni turli maktabgacha yoshidagilar uchun tuzish metodikasi 87

E.Rahimov

O'zbek xalq qo'shiqlarining yoshlari ma'naviy-axloqiy tarbiyasidagi roli va vazifalari 94

Sh.B.Bekchonova

Kiberpedagogikaning ilk rivojlanish davrlari va hozirgi kunda ta'limga samaradorligini oshirishga ta'siri 98

Z.Y.Xamraqulov

Jinoyat huquqi rivojlanishining ijtimoiy-tarixiy asoslari 101

E.B.Nabiyev

Tarix fanini o'qitishda mustaqil ta'limga topshiriqlaridan foydalanishning o'rni va ahamiyati 107

O.A.Василиченко

Профессиональное самосознание педагога - музыканта – хормейстера 111



УО'К: 308+5527

**O'ZBEK XALQ QO'SHIQLARINING YOSHLAR MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIDAGI
ROLI VA VAZIFALARI**

**РОЛЬ УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ПЕСЕН В ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОМ
ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ**

**THE ROLE OF UZBEK FOLK SONGS IN THE SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION
OF YOUTH**

Rahimov Erkin

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Vokal kofedrasi dotsenti, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist

Annotatsiya

Ushbu maqola o'zbek xalq qo'shiqlarini yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyada tutgan o'rni, xalq ijodi namunalari orqali xalqning turmush tarzi, ijtimoiy va maishiy hayoti, mehnat faoliyati, jamiyatdagi qarashlari, e'tiqodi va diniy tasavvurlari, inson va olamga nisbatan his-tuyg'ulari, badiiy olami haqidagi ma'naviy – axloqiy o'y-fikrlari o'z ifodasini topgan.

Аннотация

В данной статье описывается роль узбекских народных песен в духовно-нравственном воспитании молодежи, об образе жизни, общественной и бытовой жизни народа, трудовой деятельности, взглядах, верованиях и религиозных представлениях народа, выражены образцы народного творчества, духовно-нравственные мысли о художественном мире.

Abstract

This article describes the role of Uzbek folk songs in the spiritual and moral education of youth, about the way of life, social and everyday life of the people, work activities, views, beliefs and religious ideas of the people, examples of folk art, spiritual and moral thoughts about the artistic world are expressed .

Kalit so'zlar. Nomoddiy meros, havaskorlik, og'zaki an'ana, teatr, kasbiy musiqa, jonli ijo, daraja, tomosha, o'yin, raqs, qo'g'irchoqbozlik, ijtimoiy hayot, xalq ijodoyoti.

Ключевые слова: Нематериальное наследие, хобби, устная традиция, театр, профессиональная музыка, живое исполнение, степень, шоу, игра, танец, кукольный театр, общественная жизнь, народное искусство.

Key words: Intangible heritage, hobby, oral tradition, theater, professional music, live performance, degree, show, game, dance, puppet theater, social life, folk art.

KIRISH

Yangi O'zbekiston sharoitida musiqiy madaniyatimiz rivojiga yangidan shukux kirdi. Shu bilan birga, u ko'hna mumtoz an'analarimizning to'la tiklanishiga, ayniqsa, yosh avlodni bilimdon, savodxon, ma'naviy-axloqiy barkamol darajada tarbiyalashga misli ko'rilmagan imkoniyat yaratdi. Yangi O'zbekiston barpo etilayotgan ayni kunlarda ko'hna maqom ijrochiligi va an'anaviy ijodkorlikni rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Shuni aytish joizki, musiqa san'atimizning xalq ma'naviy hayotidagi o'rni beqiyosdir. Musiqa san'ati xalq ma'naviy dunyosining ajralmas qismi bo'lib, uning ma'naviy ehtiyojini barcha davrlarda qondirgan va har doim hamdard bo'lgan, beminnat xizmat qilgan[1;].

O'zbek xalq musiqasi va qo'shiqlariga nazar tashlasak, bu xalq ommasining badiiy, ijodiy-amaliy va havaskorlik faoliyati, an'anaviy moddiy va nomoddiy madaniyatning xalq og'zaki badiiy ijodi, ya'ni folklor, xalq musiqasi, musiqa folklori, xalq teatri, jumladan tomosha san'ati, xalq o'yinlari, raqs, qo'g'irchoqbozlik, dor va yog'och oyoq o'yinlari, jumladan xalq tomoshalari musiqa folklorini mahsulidir.

Yaratilishi va ijodiy jarayonida ko'pchilikning ishtiroki bo'lgan xalq ijodining turlari xalq turmush tarzi, yashash sharoitlari, ijtimoiy mehnat darajasiga mos ravishda shakllanib, avloddan-

PEDAGOGIKA

avlodga, ustozdan shogirdga o'tib, doimiy ravishda mukammallahib, sayqallahib, tobora an'anaviylashib borgan va nihoyat, kasbiylik, ya'ni professionallik xususiyatiga ega bo'lgan, jonli ijro sharoitlari va kundalik amaliyotda bizgacha yetib kelgan[2;].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbek xalq musiqasi va qo'shiqlari namunalarida xalqning turmush tarzi, ijtimoiy va maishiy hayoti, mehnat faoliyati, tabiat va jamiyatga qarashlari, e'tiqodi va diniy tasavvurlari, inson va olamga nisbatan his-tuyg'ulari, badiiy olami, bilim darajasi, baxtli va adolatli zamon xaqidagi o'y-fikrlari ma'naviy-axloqiy tarbiya ruhida o'z ifodasini topgan. O'zbek xalq musiqasi va qo'shiqlari qadimdan rivojlanib kelgan. Jamiyat taraqqiyoti va mehnat taqsimotinint kuchaya borishi bilan xalq ijodi janrlariga nisbatan ayrim iste'dodli shaxslarning ixtisoslashuvi osha borgan. Shu tariqa baxshilar, masxarabozlar, qiziqchilar, qo'g'irchoqbozlar, raqqoslar, mashshoqlar, naqqoshlar, kulollar, o'ymakorlar, kashtado'zlar va xalq san'ati yuzaga kelgan, ishqibozlar paydo bo'lgan. Ammo, uning yaratilishi va o'zlashtirilishida ko'pchilikning ishtiropi, har bir ijro yoki amaliyot qadimdan qaror topgan mustahkam an'analar doirasida hodisa bo'lishi saqlanib kelgan.

Har qanday badiha, ijodi hatti-harakat, yangilik barqaror an'analar va ustoz-shogird munosabatlari doirasida ro'y bergan. Bir tomondan, an'analarining o'zi rivojlana borgan, ikkinchi tomondan, har bir ijro yoki amaliyot davomida o'zgartirishlar, yangiliklar kiritilgan, yangi asarlar nus'halari yuzaga kelgan. Qay birlari unutilib, ijro va amaliyotdan tushib qolgan. O'zbek xalq musiqasi va qo'shiqlari mukammal san'atning yuzaga kelishi va rivojida katta o'r'in tutadi.

O'z navbatida, mukammal san'at ham xalq ijodi rivojiga ta'sir ko'rsatib, uni boyitib kelmoqda. Jamiyatda xalq ijodi namunalarini saqlash va rivojlantirish, yo'qolganlarini tiklash ehtiyoji o'zining nafis talablarini qondirish, yaxshi yashash va hayotini mukammallashtirishga bo'lgan intilishidan kelib chiqqan. Bugungi kunda o'zbek xalq musiqasi va qo'shiqlari namunalarini saqlash va rivojlantirish uchun katta imkoniyat va sharoitlar yaratilgan. Umum davlat miqyosidagi o'zbek xalq musiqasi va qo'shiqlari namunalarining ilmiy o'rganilishi va nashr etilayotganligi, ko'plab folklor-etnografik ansambllarning mavjudligi, turli rusumdagagi xalqaro musiqa festivallarini o'tkazilishi buning tasdig'idir.

Musiqa shunos olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida qo'shiq va musiqaning shaxsn shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati kattaligi ko'plab dalillar yordamida ko'rsatib berilgan. Manbalarda ta'kidlanishicha, shaxsnning kamol topishida uning dunyoqarashi, ma'naviyati, axloqi, madaniyatililik darajasi, his-tuyg'ularini rivojlantirishda musiqa ta'limi alohida o'r'in tutadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shu fikrga tayangan holda aytish mumkinki, bola shaxsini ma'naviy-axloqiy shakllantirish bevosita musiqa, jumladan Sharqona janr sanalgan o'zbek xalq musiqasi va qo'shiqlari orqali muvoffaqiyatli amalga oshiriladi[3]. Ma'naviy-axloqiy me'yirlarni yoshlarga singdirish uchun, eng avvalo, ularni ma'naviy-axloqiy tushunchalar bilan tanishtirish lozim bo'ladi. Mutaxasislar fikriga tayanib, ma'naviy-axloqiy tushunchalarni quyidagi uch guruhgaga bo'lish mumkin:

- 1) ma'naviy-axloqiy tushunchalarni bayon qilish;
- 2) ma'naviy-axloqiy fikr yuritish;
- 3) ma'naviy - axloqiy xulosalar chiqarish.

Ma'naviy-axloqiy me'yorlar sahiylik, oqko'ngillilik, yaxshilik, hurmat, xayriyohlik, ma'suliyatilik, mehnatsevarlik kabi atamalarning mazmunini bilib olish, o'z faoliyatida unga amal kilishni anglatadi. Ma'naviy-axloqiy tushunchalarning mohiyatini aniq his qilish uchun u yoki bu holatda barcha unga amal qilishi hamda uning natijasi qanday yakun topganligini sinchkovlik bilan kuzatib, fikr yuritishi va o'zining shaxsiy hulosasini chiqarib olishi lozim. Ma'naviy-axloqiy me'yirlarni ta'lif jarayonida chuqur o'zlashtirish maqsadga muvofiqdir. Bunda ayniqsa, musiqa ta'limi katta imkoniyatlarga ega. Ma'naviy-axloqiy me'yorlar ko'p bor sinovdan o'tkazilgandagina barqarorlik kasb etadi va u kishining haqiqiy tayanchi sifatida uning hayotiy xatti-harakatlariga turtki beradi. Uning qay holatda qanday ish tutish kerakligini aniq ko'rsatadi.

Bilimlarni to'plash va axloqiy tajribani kengaytirish yosh avlodning axloqiy g'oyalarini keyinchalik mustahkamlash va chegaralashga olib keladi, shuning bilan bolalarni axloq va axloq haqidagi oddiy mulohazalar bilan yaqinlashtiradi, umumlashtirishga olib keladi. V.A.Suxomlinskiyning fikricha, "Bolaligida bolani qo'lidan yetaklagan, uning ongi va yuragi qanday xislar ilan to'lgan bo'lsa, u katta bo'lgach qanday inson bo'lishini hal qiluvchi darajasini belgilaydigan muhim omil bo'lib rol o'ynaydi"[4].

Axloq haqidagi g'oyalar doirasiga jamiyatdagi xulq-atvor qoidalari va me'yorlari, o'ziga xos qadriyatga ega bo'lgan insoniy axloqiy fazilatlar (halollik, adolat, mas'uliyat, xayrixohlik, hayo) haqidagi bilimlar kiradi. Axloqiy g'oyalarni anglash jarayonida yoshlar o'z xatti-harakati mazmunini to'liq anglaydi, me'yor va talablarni bajarish zarurligini anglash imkoniyatiga ega bo'ladi, bu axloqiy baho va xatti-harakatlar motivlarini shakllantirishga yordam beradi. Shunday qilib, axloqiy g'oyalar insonning o'ziga xos ma'nnaviy printsipiga muvofiq fikrlash, harakat qilish, his qilish imkonini beradigan va jamiyatdagi xatti-harakatlar normalari va qoidalari, insonning axloqiy fazilatlari to'g'risidagi g'oyalarni o'z ichiga olgan fazilatlari haqidagi g'oyalar sifatida tahlil qilinishi mumkin.

O'zbek xalq musiqasi va qo'shiqlarida berilgan fikrlar va ohanglarda qaror topgan da'vatlar, nasihatlar, ko'rsatmalar uning asrlar davomida ortirgan tajribasi natijasida qayta tekshirilib, sayqal topib kelgan hayotiy xulosalari mahsulidir. Xalqning har bir aytgan gapi «o'q» va uni o'qib olmagan kishi hayotda pand yeyishi tabiiydir. Ma'navyy-axloqiy tushunchalarni bilib olish, kundalik turmushda sodir bo'ladigan turli voqealar va psixologik holatlarga taqqoslab ko'rish natijasida mukammal shakllangan odatlar, ko'nikma va malakalar hosil bo'la boshlaydi.

Yoshlar dunyoqarashining shakllanishi va kamol topishida musiqaning, ayniqsa xalqning yurak dardlari, quvonch shodliklari, g'am-alamlari, orzu-umidlarining silsilasidan yaralgan xalq qo'shiqlarining tutgan o'rni beqiyosdir[4;]. O'zbek xalq musiqasi va qo'shiqlari o'zbek xalqining avloddan-avlodga o'tib qon-qoniga singib ketgan san'at turidir va shuning uchun ham xalq ohanglari, nola-qochirimlari va boshqa milliy bezaklarini tinglagan odam unga befarq bo'la olmaydi. bevosita unga ergashadi, qo'shilishib kuylaydi, raqsga tushadi, ya'ni musiqa uni o'zining sehrli olamiga yetaklab ketadi. Xalq qo'shiqlari faqat estetik joziba olami bo'libgina qolmay o'ziga xos katta bir ta'lim-tarbiya quroli hamdir. Chunki, inson his-hayajonining zamirida ma'nnaviy-axloqiy tushunchalar, hislar, hulosalar ham yotadi.

Ma'nnaviy-axloqiy fazilatlarni o'zlashtirish jarayonida yoshlarning yangidan-yangi ma'nnaviy-axloqiy ehtiyojlari paydo bo'ladi. Shu ehtiyojlarni qondirishga harakat qilish esa bolada o'z oldiga qo'yan qo'shiqlarini vazifalarni amalga oshirishga intilish, izlanishni qaror toptiradi. Bu harakat yoshlarning bolalik davridayoq yaqqol ko'zga tashlanadi. Pedagog olimlarning fikrlariga tayangan holda aytish mumkinki, o'zbek xalq musiqasi va qo'shiqlari vositasida bolalarning ma'haviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish to'rt asosiy yo'nalish bo'yicha amalga oshirilishi mumkin:

1. Ona Vatani va xalqiga bo'lgan muhabbat tuyg'usi.
2. Mehnat, insonlar tomonidan yaratilgan ne'matlarga bo'lgan munosabatni shakllantirish.
3. Yoshlarni jamiyat a'zolari, qarindoshlari va uni o'rabi turgan tengdoshlariga bo'lgan munosabati.

4. Uning shaxs sifatida o'z-o'ziga nisbatan qarashlarini qaror toptiradi.

Bugungi kunda jamiyatning ma'nnaviy-axloqiy holatining yomonlashuvi, tarixiy voqealarning buzilishi, ma'nnaviyatning yetishmasligi, uning axloqiy asoslarining qashshoqlashuvi g'oyalarning yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan yuzma-yuz kelmoqda. Ma'nnaviy-axloqiy tarbiya - bu shaxsning barqaror, barkamol rivojlanishini ta'minlaydigan, burch, adolat, mas'uliyat hissini tarbiyalashni o'zida mujassamlagan ijtimoiy tajriba va shaxsning ijtimoiy shakllanishi tamoyillarini avloddan avlodga o'tkazishning maxsus tashkil etilgan tizimidir.

Ota-onalar uyda bo'sh vaqt ni samarali tashkil etishda o'z farzandlariga maqollar, matallarni takrorlab, xalq qo'shiqlarini tinglashlari, qo'shiqlar kuylashlari, xalq o'yinlari o'ynashlari, ertaklar o'qishlari, stol ustida qo'l teatri tashkillashlari, shu orqali farzandlarida og'zaki xalq og'zaki ijodiga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishlari axloqiy tarbiyani yuksak samarador usullaridandir. Rus pedagogi V.Suxomlinskiy ta'kidlaganidek "Gimnastika tanani tiklasa, musiqa ruhiyatni tetiklashtiradi".

Aynan tajribalar axloqiy ma'lumotlar shakllanayotgan shaxsga amalda erkin yetib boradigan kanalga aylanadi." Suxomlinskiy antropologik yondashuvga, pedagogik faoliyatning gumanistik yo'naltirilgan shakllari, vositalari va usullarini uyg'unlashtirishga, uning subyekt-subyektiviga asoslangan o'ziga xos tabiat, bola shaxsini tarbiya va ta'lim jarayonlarining eng yuqori qadriyati sifatida tan olish yaxlit pedagogik tizimni yaratdi.

Yangi O'zbekiston barpo etilayotgan ayni kunlarda yoshlarni milliy-ma'nnaviyatimizning haqiqiy egasiga aylanishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya oldida turgan asosiy maqsadlardan biri - yosh avlodga ajdodlarimizning asrlar davomida orttirilgan ma'nnaviy boyliklarini singdirish, ularda insoniy

PEDAGOGIKA

fazilatlarni qaror toptirish va muntazam rivojlantirib borish, Vatan va millat oldidagi burch va mas'uliyagini his etishga o'rgatishdan iboratdir.

XULOSA

Ma'naviy-axloqiy fazilatlarni yoshlarni Vatanga, mehnatga, insonlarga bo'lgan muhabbatni kabi, serqirra manbalari unda ma'naviy ehtiyoj va qiziqish uyg'otishda, ma'naviy faoliyat va qadriyatlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ma'naviy-axloqiy manbalar yoshlarda ma'naviy fazilatning tarkibiy qismlarini shakllantirish vositasidir. Uning ma'naviy fazilatlari aqliy, axloqiy, siyosiy-iqtisodiy, huquqiy-ekologik, estetik-badiiy, diniy-madaniyat kabi ko'pqirrali tarkibiy qismlaridan iborat. Musiqa ta'limi jarayonida ma'naviy-axloqiy fazilatning tarkibiy qismlari yoshlardan ongiga o'zaro birlik va hamjixatlilikda singdiriladi.

O'zbek xalq musiqasi va qo'shiqlari vositasida yoshlarda insonparvarlik, sadoqat, qanoat, mehr-muhabbat, adolatparvarlik, nafosat, e'tiqod, mehnatga ijobjiy munosabat, din va bid'atni bir-biridan farqlash, tabiatga muhabbat, burch va huquqni anglash kabi yuksak ma'naviy fazilatlar shakllanib boradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lmini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Farmoni. Xalq so'zi. 2019-yil 29 aprel.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora tadbirdari to'g'risida" gi Qarori. Xalq so'zi. 2019-yil 30-sentyabr.
3. Духовный мир школьника подросткового и юношеского возраста / В. А. Сухомлинский. – М. : Учпедгиз, 1961г
4. U.K.Rahmonov. "Yoshlarni ma'naviy ruhda tarbiyalashda baxshichilik san'atining o'rni". O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi. Toshkent. 2022 yil. Milliy baxshichilik san'atining rivojlanish boshqichlari. Ilmiy maqollar to'plami.
5. Васильев В. А. Эволюция русской хоровой культуры и проблемы совершенствования дирижерско-хорового образования // Вестн. С. Петерб. гос. ун-та культуры и искусств. 2011. № 4 (9), дек. С. 76–81
6. Казаков С. А. Дирижерский аппарат и его постановка. М.: Музыка, 1967. В. 106–107
7. Упражнения на расслабление рук и всего дирижерского аппарата (головы, шеи, корпуса) можно найти в учебниках по технике дирижирования. Казачков С. А. Указ. соч. С. 36; Мусин И. А. Техника дирижирования. 2-е изд., доп. СПб.: Центр Деан-Адия. М., 1994. В. 24–32.
8. Сивизьянов А.С. Проблема мышечной свободы дирижера хора. М.: Музыка, 1983.
9. <https://lex.uz/docs/-5818990?ONDATE=12.01.2022%2000> O'zbekiston respublikasi Vazirlar mahkamasining 12.01.2022 19-son qarori
10. Musiqa ijodiyoti masalalari. Maqolalar to 'plami. 2-kitob. - T., 2002.